


2019-yilning yanvar-oktabr oylarida Toshkent viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019-yilning yanvar-oktabr oylarida Toshkent viloyati korxonalari tomonidan 44,1 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 107,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 27,7 %, iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 103,8 %, iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 18,9 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash -1,1 % ga kamayishi, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 7,3 % ga, qayta ishlash 14,1% ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohalarida 21,2 % ga o'sishi kuzatildi.

Yanvar-oktabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarishdagi ulushi, % da



* Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019-yilning yanvar- oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi 1571,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,6 % ni tashkil etdi.



2019-yil yanvar- oktabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlarini	mlrd. so'm	2018-yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, %
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, Indeksi %da	44059,8	107,0

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash		1571,6	100,4
---	---	--------	-------

shu jumladan:

Ko'mir va lignit qazib olish		483,4	74,0
Metal rudalarini qazib olish		954,6	106,6
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlashda xizmatlar		133,6	98,3

* Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

**Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari
(qayta ishlash sanoati)**

2019-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 38249,3 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 114,1% ini (jami ishlab chiqarishdagi ulushi 86,8%)ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	mlrd. so'm	2018-yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, %
---------------------	---------------	--

Qayta ishlash sanoati		38249,3	108,5
-----------------------	---	---------	-------

shu jumladan:

Oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish		4446,1	87,8
To'qimachilik mahsulotlari, kiyimlar, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish		3329,5	103,3
Yog'och va po'kak buyumlar, poxol va to'qish uchun materiallardan buyumlari, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish		566,9	105,8
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish		67,0	131,1

**Ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlari
(qayta ishlash sanoati)**

Sanoat mahsulotlari		mlrd. so'm	2018-yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, %
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish		39,9	102,4
Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish		3014,6	90,4
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish		119,1	79,1
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish		2569,3	124,0
Metallurgiya sanoati		20760,9	118,5
Avtotransport vositalari, tirkamalar va yarim pritseplar ishlab chiqarish hamda mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish, tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish		2161,0	129,6

Yuqori texnologiyali
ishlab chiqarish



82.5%

O'rta-yuqori
texnologiyali ishlab
chiqarish



108.4%

O'rta-quyi
texnologiyali ishlab
chiqarish



121.6%

Quyi texnologiyali
ishlab chiqarish



100.8%

Ishlab chiqarishning
texnologik tarkibi
bo'yicha ishlab
chiqaradigan sanoat
tarkibi 2018 yil
yanvar-oktabrga
nisbatan % da

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4090,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 9,3 % ni) tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari		mlrd. so'm	2018-yil yanvar- oktabrga nisbatan, %
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash		4090,5	107,3

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 148,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ni) tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari		mlrd. so'm	2018-yil yanvar- oktabr ga nisbatan, %
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish		148,4	121,2

Ishlab chiqarilgan xalq iste'mol mollari

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 8338,0 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018-yilning yanvar- oktabr oylariga nisbatan 3,8 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 18,9 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar- oktabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va o'sish sur'ati



2019-yilning yanvar-oktabr oylarida iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlarini ishlab chiqarishdagi ulushi 51,8 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo 8,4 % ni (2018-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan 97,5 %) ni tashkil etdi.


**2019-yil yanvar- oktabr oylarida xorijiy investitsiyalar
ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab
chiqarilgan sanoat mahsulotlari**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 11969,3 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. 2018-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 9,9 % ga o'sishni ta'minladi.

2019 yil yanvar-oktabr




Boshqa korxonalar



**xorijiy investitsiyalari
ishtirokidagi korxonalar**

2018 yil yanvar-oktabr



Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 27,2 % ni tashkil etdi.Toshkent viloyati bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar soni 1099 tani tashkil etadi, shundan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarayotgan 271ta korxonalar mavjud.

**2019-yil yanvar-oktabr oylarida hududlar bo'yicha ishlab
chiqarilgan sanoat mahsulotlari**

	2019-yil yanvar-oktabr , mlrd. so'm	2018-yil yanvar- oktabrga nisbatan, %
Toshkent viloyati	44059,8	107,0
Shaharlar:		
Nurafshon	776,1	84,0
Olmalik	15618,2	100,2
Angren	2429,6	84,4
Bekobod	5016,6	98,9
Ohangaron	1068,9	105,7
Chirchiq	3864,9	109,0
Yangiyo'l	607,4	112,9
Tumanlar:		
Oqqo'rg'on	608,0	103,7
Ohangaron	157,9	115,6
Bekobod	207,2	102,0
Bo'stonliq	1937,2	97,3
Bo'ka	166,6	98,5
Quyichirchiq	217,8	101,6
Zangiota	2804,6	115,6
Yuqorichirchiq	1560,0	104,5
Qibray	3001,9	102,0
Parkent	358,6	102,8
Pskent	328,4	104,1
O'rtachirchiq	344,0	101,4
Chinoz	386,3	101,8
Yangiyo'l	912,4	101,7
Toshkent	1687,1	104,4

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti
turlarini ishlab chiqarish
(yirik korxonalar bo'yicha)**

Sanoat mahsulotlari	o'lchov birligi	2019-yil yanvar-oktabr	O'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
---------------------	-----------------	------------------------	--

Qayta ishlash sanoati

Tarkibida ikkita ta'minlovchi element–azot va fosfor bo'lgan mineral yoki kimyoviy o'g'itlar	ming tonna	192,1	83,9
Aroq	ming,l. 100% spirt	12989,1	81,7
Uzum vinosi yoki uzum turpini distillash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari	ming l. 100% spirt	34	95
Uzum vinosi tabiiy	ming l.	807,4	76,6
Pivo (pivo ishlab chiqarish chiqindilardan tashqari)	ming l.	119143,9	108,1
Yumshoq bug'doy va spelta uni	ming tn.	217789,1	85,3
Tozalangan o'simlik yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)	tn	5403,2	195,8
Paxta tolasi	ming tn.	22,7	62,4
Paxta chigiti	ming tn.	37,4	63,7
Paxta tiviti (lint)	tn	2037,0	64,2


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Sanoat mahsulotlari	o'lchov birligi	2019-yil yanvar-oktabr	O'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
Elektr energiya	mln.kvt/s	14942,1	105,5
Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi)	ming gkal.	2716,5	95,9

Yanvar-oktabr oylarida hududlar bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari


Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Olmaliq shahar (viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmning 35,4 % ulushini), Bekobod shahar (11,4 %), Chirchiq shahar (8,8 %), Angren shahar (5,5 %), Qibray tumani (6,8 %), Zangiota tumani (6,4 %), hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2019 yil yanvar-oktabr oylarida hududlar bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining ulushi,%



2019-yilning yanvar-oktabr oylarida hududlar bo'yicha davlat ulushi yuqori bo'lgan korxonalar va maxalliy ahamiyatga ega korxonalar sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %da


Hududlar kesimida Davlat ulushi yuqori bo'lgan korxonalar sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ishlab chiqarishdagi ulushlari Olmaliq (97,9 %), Bekobod (95,8%), Angren (66,4 %) va Nurafshon (50,3 %) shaharlariga to'g'ri keladi.



Davlat ulushi eng kichik ulush Yangiyo'l (1,6 %), Pskent (7,1 %), Chinoz (8,4 %) tumanlarida va Ohangaron shahrida (17,4 %) kuzatildi.

2019-yil yanvar-oktabr oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'mol mollarining o'sish sur'atlari (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, foizda)

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning viloyat darajasi (15119,5 ming so'm), Olmaliq shahrida (120232,2 ming so'm), Bekobod shahrida (52918,0 ming so'm), Ohangaron shahrida (28733,1 ming so'm) va Chirchiq (24727,3 ming so'm) shahrida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Sanoat mahsulotlari ishlab
chiqarish


Iste'mol mollarini

Aholi jon boshiga xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi viloyat darajasi 2861,2 ming so'm bo'lgani holda Zangiota tumanida 8710,6 ming so'mni, Ohangaron shahrida 7048,3 ming so'mni, Yangiyo'l shahrida 4696,9 ming so'mni, Chirchiq shahrida 3986,5 ming so'mni tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha 2019-yilning yanvar-oktabr oylarida iste'mol tovarlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**


	mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2018 yil yanvar- oktabr oyiga nisbatan % da
Toshkent viloyati	8338,0	18,9	103,8
Shaharlar:			
Nurafshon	32,5	4,2	126,8
Olmalik	163,6	1,0	95,7
Angren	224,7	9,2	86,2
Bekobod	122,0	2,4	83,6
Ohangaron	262,2	24,5	160,1
Chirchiq	623,1	16,1	111,2
Yangiyo'l	281,3	46,3	103,3
Tumanlar:			
Oqqo'rg'on	208,7	34,3	100,4
Ohangaron	76,6	48,5	100,2
Bekobod	160,0	77,2	148,1
Bo'stonliq	443,8	22,9	101,2
Bo'ka	154,8	92,9	107,9
Zangiota	1704,7	60,8	97,2
Yuqorichirchiq	525,6	33,7	106,1
Quyichirchiq	84,7	38,9	109,8
Qibray	1178,6	39,3	102,2
Parkent	186,9	52,1	96,1
Piskent	84,6	25,8	99,6
O'rtachirchiq	173,2	50,4	114,7
Chinoz	209,7	54,3	124,4
Yangiyo'l	447,9	49,1	101,2
Toshkent	988,7	58,6	105,8

2019-yilning yanvar- oktabr oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarishdagi ulushi, %



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Toshkent tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 89,6 %), Parkent tumani (83,3 %), Yuqorichirchiq (76,3 %) va Quyichirchiq (72,1 %). Shu bilan birga, eng kichik ulush Olmaliq shahri (2,3 %), Bekobod shahri (2,9 %), Angren shahri (14,2 %), Ohangaron (15,7 %) shaharlarida kuzatildi.


Toshkent viloyati bo'yicha 2019-yil yanvar-oktabr oylarida jami ro'yxatdan o'tgan sanoat korxonalari soni, birlikda



Toshkent viloyati bo'yicha jami ro'yxatdan o'tgan sanoat korxonalar soni 8437 ta bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan (27,4 %) ga oshgan, faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar soni 7401 ta, o'tgan yilning shu davriga nisbatan (27,0 %) ga oshgan, faoliyatini vaqtincha to'xtatgan sanoat korxonalar soni 1036 ta o'tgan yilning shu davriga nisbatan (29,7 %) ga oshgan, yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar soni 1725ta, o'tgan yilning shu davriga nisbatan (60,6 %) ga oshgan, faoliyati to'xtatilgan sanoat korxonalar soni 238ta, o'tgan yilning shu davriga nisbatan (21,4 %) ga oshgan.

Toshkent viloyati hududlar bo'yicha 2019-yil yanvar-oktabr oylarida jami ro'yxatdan o'tgan sanoat korxonalari soni

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan eng ko'p sanoat korxonalari Zangiota (1277 ta bundan 1110 ta faoliyat ko'rsatadi), Qibray (820 ta bundan 671 ta faoliyat ko'rsatadi), Toshkent (721 ta bundan 605 ta faoliyat ko'rsatadi) tumanlariga to'g'ri keladi.



Eng kam sanoat korxonalari Oqqo'rg'on (176 ta, bundan 151 ta faoliyat ko'rsatadi), Bekobod (168 ta, bundan 148 ta faoliyat ko'rsatadi) tumanlariga to'g'ri keladi

Sanoat statistikasi bo'limi

R.Avliyakulova
(71)230 86 66